

## O'rta Osiyo cho'l toshbaqasi O'zbekiston "Qizil Kitob"ga kiritildi

O'rta Osiyo cho'l toshbaqasi O'zbekiston "Qizil kitobi"ning 5-nashriga kiritildi. Cho'l toshbaqasi mamlakatimiz hududining barcha tekislik qismlarida (qo'zg'aluvchan qumlardan tashqari) tarqalgan. Mustahkamlashgan qumlar, sertuproq cho'llar yashaydi. Tog'da dengiz sathidan 1300 metr balandlikkacha ko'tariladi. Ba'zan vodiydagi siyrak maysali dashtlar va qishloq xo'jaligi yerlari (shudgor, poliz va dalalar) ga kiradi.



Cho'l toshbaqasi kunduz paytlari faol hayot kechiradi. Iyul oyida yozgi uyqusi keyinchalik qishki uyquga ulanib ketadi. Uzunligi 1-2 metr bo'lgan in qaziydi. Mart oyida uyg'onadi va bir necha kundan so'ng juftlashadi. Aprel oyidan iyul oyigacha 2-3 marta 2-6 tadan tuxum qo'yadi. 80-110 kundan so'ng tuxumdan yorib chiqqan toshbaqachalar qishlash uchun tuproq ostida qoladi. Faqatgina keyingi yilning bahorida yer yuzasiga chiqadi. Hayotining o'ninchi yilida jinsiy voyaga yetadi. Efemer o'simliklar, ko'p yillik o't va butalar bilan oziqlanadi. Xususiy parvarishxonalarda muvaffaqiyatli ko'paytirish mumkin.



Hozirda cho'l toshbaqasi Qizilqum, Surxon, Nurota davlat qo'riqxonalarida va "Jayron" ekomarkazida muhofaza ostiga olingan. Eksport uchun yovvoyi toshbaqalarni ovlash va tuxumini terish taqiqlanishi zarur. Turning yashash joylarida muhofazasini kuchaytirish, bahorgi davrda chorva mollari o'tlatilishi nazorat ostiga olinishi lozim.